



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 8-avgust, № 161 (9332)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR YANADA MUSTAHKAMLANADI

7-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida O'zbekiston rahbari Donald Trampni AQSh mustaqilligining 250-yilligi bilan yana bir bor tabrikhladi.

Prezident Tramp, o'z navbatida, O'zbekiston – Amerika munosabatlari misli ko'rlmagan darajaga yetganini hamda ikki mamlakat yetakchilari o'rtasida ishonchga asoslangan yaqin muloqot o'rnatilganini ta'kidladi.

Oliy darajada erishilgan barcha kelishuvlarning izchil amalga oshirilayotgani mamnuvniyat bilan qayd etilib, strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

O'zaro hamkorlikning deyarli barcha yo'nalishlarini qamrab olgan ikki tomonlama muloqot va almashinuvlarning jadal sur'atiga yuqori baho berildi.

Uch yillik iqtisodiy hamkorlik dasturi izchil amalga oshirilmogda. Amerika – O'zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. O'zbekiston

hududlari va Amerika shtatlari o'rtasidagi hamkorlik kengayib bormogda. AQSh fuqarolari uchun vizasiz tartib joriy etilgani ishbilarmonlik aloqalarining faollashuviga xizmat qilmogda.

Fuqaro aviatsiyasi, avtomobilsozlik, tog'-kon sanoati, infratuzilma, energetika, metallurgiya, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va boshqa sohalarida qo'shma loyihalar amalga oshirilmogda.

Xalqaro ahamiyatga molik masalalar muhokama qilinir ekan, global xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro va mintaqaviy mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish borasidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

Yetakchilar bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqdilar.

Suhbat yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Donald Trampga o'zi uchun qulay vaqtda rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga kelishni taklif qildi.

SUN'IY INTELLEKT EKOTIZIMINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA DOLZARB VAZIFALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda sun'iy intellekt ekotizimini rivojlantirish bo'yicha erishilgan natijalar va istiqboldagi ustuvor vazifalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan ishlar natijasida O'zbekiston sun'iy intellektga tayyorlik bo'yicha xalqaro reytingda 25 pog'ona yuqorilab, 62-o'ringa ko'tarildi. 2030-yilga qadar yurtimizni mazkur reytingda dunyodagi eng ilg'or 50 ta davlat qatoriga kiritish maqsad qilingan.

Shuningdek, sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulot va xizmatlar hajmini 1,5 milliard dollarga yetkazish, infratuzilmani kengaytirish hamda 200 dan ortiq yangi loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari sohadagi texnologiyalar shiddat bilan o'zgarayotganini ta'kidlab, jahon va mintaqadagi tendensiyalarni muntazam tahlil qilish, ilg'or ishlanmalarni tezkor o'zlashtirish va yangi tashabbuslarni ilgari surish zarurligini qayd etdi.

Avvalo, taqdimotda zamonaviy

hisoblash infratuzilmasini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi. O'tgan oyda "Raqamli hukumat" data-markazida AQShning "NVIDIA" texnologiyalari asosidagi superkompyuter ishga tushirildi. U quvvati bo'yicha jahon reytingida 321-o'rinni egalladi. Bir oy ichida klaster yuklamasining 90 foizga yetgani mamlakatimizda hisoblash quvvatlariga talab yuqori ekanini ko'rsatmogda.

Bugungi kunga qadar 24 million dollarlik zamonaviy hisoblash infratuzilmasi ishga tushirildi. Mavjud klasterini kengaytirish uchun yana 70 million dollar yo'naltirish taklif qilindi. Qo'shimcha mablag'lar manbalari, zarur uskunalarni olib kelish muddatlari hamda Qoraqalpog'istonda xorijiy investorlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan data-markazlar loyihalarini bo'yicha axborot berildi.

(Davomi 2-betda).



“YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORLARI” KASBIY MAHORAT MILLIY TANLOVI G‘OLIBLARIGA

Aziz farzandlarim!

Qadrlil ustoz va murabbiylar!

Mamlakatimizda Prezident sovrini uchun ilk bor o'tkazilgan **“Yangi O'zbekiston bunyodkorlari” kasbiy mahorat milliy tanlovida** erishgan yutuqlaringiz bilan barchangizni chin qalbmndan samimiy muborakbod etaman.

Vatanimizning bugungi shiddatli taraqqiyoti, hayotimizga kirib kelayotgan raqamli iqtisodiyot, zamonaviy korxonalar o'z ishinig ustasi bo'lgan, raqobatbardosh kasb egalari tayyorlash va rag'batlantirishni talab etmogda.

Biz ana shu o'tkir zaruratni hisobga olib hamda azaldan ilm va hunar egalari e'zozlab keladigan xalqimizning e'zgu an'analari rivojlantirish maqsadida mazkur milliy tanlovni tashkil etdik. Kasb-hunar sirlarini chuqur egallagan, puxta bilim va yuqori ko'nikmaga ega, o'z sohasida yangilik yaratir oladigan sizlar kabi navqiron yoshlarimizning bugungi erishgan natijalari bu qarorimiz naqadar to'g'ri bo'lganini yana bir bor tasdiqlamogda.

Darhaqiqat, uch bosqichda o'tgan ushbu nufuzli tanlovda minglab yoshlarimiz katta qiziqish va ishtiyok bilan faol ishtirok etdi. Ayniqsa, tanlovning dastlabki – tuman va shahar bosqichida 124 ming nafardan ziyod o'g'il-qizlarimiz o'z iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etganlari barchamizni quvontiradi. Keyingi – hududiy bosqichda qatnashgan qariyb 7 ming nafar ishtirokchining 3 ming 500 nafari o'zini o'zi band qilgan mahalla yoshlari ekani e'tiborlidir.

Yana bir muhim jihati – mazkur tanlov ko'plab maktab bitiruvchilarining shaxsiy hayotida yangi sahifa ochgani, ya'ni 22 ming nafar yigit-qiz uchun ishlash, ta'lim olish yoki mehnat bozorida

ishtirokisiz tasavvur etolmaymiz.

Keyingi yillarda sohani tubdan isloh qilish, uni iqtisodiyotning drayverlaridan biriga aylantirish, investitsiya muhitini yaxshilash, zamonaviy shaharsozlik va raqamli boshqaruv tamoyillarini keng joriy etish bo'yicha amalga oshirayotgan ulkan ishlarimiz ijobiy natijalar bermoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, so'nggi 9 yilda yurtimizda 210 million kvadrat metr dan ziyod bino va inshootlar, jumladan, 647 mingta, o'tgan yilning o'zida esa 135 mingta kvartiraga ega bo'lgan uy-joylar barpo etilganini ta'kidlash lozim. Joriy yilda yana 140 mingta yangi kvartira foydalanishga topshiriladi. 2040-yilgacha mamlakatimizda quriladigan uy-joylar sonini yiliga 280 mingtaga yetkazish, “Yangi O'zbekiston” massivlarini 61 tadan 120 taga ko'paytirishni reja qilganmiz.

Bu yil O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom

Buxoriy yodgorlik majmuasi va Burhoniddin Marg'noniy turizm markazi kabi noyob madaniy-ma'rifiy inshootlarda qurilish va obodonlashtirish ishlarini yakuniga yetkazishda fidokor quruvchilarimizning hissasi beqiyos bo'ldi.

Poytaxtimizdagi Yangi Toshkent, Toshkent viloyatidagi Nurafshon, Andijon viloyatidagi Bobur, Samarqanddagi Shirin, Xorazmdagi Al-Xorazmiy shaharlari kabi megaloyihalar mutlaqo yangi muhandislik yechimlari, “yashil” qurilish tamoyillari bilan mamlakatimizning bunyodkorlik tarixida yorqin sahifa ochmogda.

Qadrlil do'stlar!

Hozirgi kunda 3 million 500 mingdan ziyod kishi mehnat qilayotgan qurilish, qurilish materiallari sanoati va ularga yondosh sohalarida g'oyat muhim islohotlar amalga oshirilmogda. Keyingi paytda qurilishga

ruxsat berish bosqichlari 3 barobar, muddatlari esa 4 karra qisqartirildi. “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi asosida 24 ta zamonaviy elektron platforma ishga tushirilib, asosiy boshqaruv jarayonlari raqamlashtirildi. Barcha nazorat jarayonlari raqamli formatga o'tkazildi.

Davlat xaridlari tizimida elektron tender platformasi yo'lga qo'yilgani ham shaffoflikni ta'minlashda muhim omil bo'lmogda. Tarmogda sun'iy intellekt texnologiyalari faol joriy etilmogda.

Bularning barchasi sohada inson omilini qisqartirish, korrupsiya bilan bogliq xavf-xatarlarni bartaraf etish va qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgani bilan e'tiborlidir.

Bugungi kunda barcha sohalar qatori qurilish borasidagi faoliyatni rivojlantirish, qurilish ishlari sifatini oshirish bo'yicha ham oldimizda ulkan vazifalar turibdi. Ularni

amalga oshirishda o'z hayotini el-yurtimizni obod va farovon qilishdek e'zgu ishga bag'ishlab kelayotgan soha xodimlarining bilim va tajribasi, kasb mahoratini oshirish, ularning mehnatini har tomonlama rag'batlantirish bundan buyon ham diqqat-e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Sizlar o'z burchingizni chuqur anglagan holda xalqimiz uchun xavfsiz, qulay va farovon hayot muhitini yaratishga qaratilgan sharaflil faoliyatingizni hamisha yuksak sifat va mas'uliyat bilan ado etasizlar deb ishonaman.

Barchangizni bugungi kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan tabriklab, sizlarga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt-saodat, ishlaringizda yangi yutuq va omadlar tilayman.

Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz bunyodkorlar!

Shavkat MIRZIYOYEV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida



KUN TARTIBIDA – BYUDJET MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALASI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi yig'ilishida 2026-yilning birinchi yarmida tegishli vazirliklar va idoralarning Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish, byudjetdan tashqari mablag'lar ijrosi hamda rivojlantirish dasturlari maqsadli indikatorlarining bajarilishi yuzasidan hisobotlari eshitildi.

Qayd etilganidek, davlatimiz rahbari belgilab bergan vazifalardan kelib chiqib, ijtimoiy sohalarini rivojlantirish, ta'lim sifati, ilm-fan salohiyati, madaniyat, sport va turizmni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan byudjet mablag'larining manzilli hamda samarali sarflanishi ustidan parlament nazorati izchil amalga oshirilmogda.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hisobotida aytilganidek, joriy yilning birinchi yarmida maktabgacha ta'lim sohasida 700 ta yangi nodavlat bog'cha tashkil etildi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash uchun 2 trln. 75,9 mlrd. so'm subsidiya ajratildi. Bu esa mazkur muassasalarda bolalar qamrovi darajasini 78 foizda saqlab qolish imkonini bergan.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida xorijiy til o'qituvchilarining 76,4 foizi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'ldi. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning 226 nafar bitiruvchisi dunyoning “TOP – 300” oliy ta'lim muassasalariga qabul qilindi. Shuningdek, nodavlat maktablar soni 786 taga, ularda tahsil olayotgan o'quvchilar esa 181,6 ming nafargacha yetdi.

Hisobot davrida maktablar uchun 89,3 mln. nusxa yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini chop etish hamda yetkazib berish uchun 1,9 trln. so'm ajratildi.

➡3

ISLOHOTLARNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH – USTUVOR YO'NALISH



Yalpi majlis

Kengash qaroriga muvofiq, Oliy Majlis Senatining o'n sakkizinchi yalpi majlisi 2026-yil 7-8-avgust kunlari o'tkaziladi.

Yalpi majlis kun tartibiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, bozor munosabatlari takomillashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholini

Oliy Majlis Senati Kengashining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n sakkizinchi yalpi majlisini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

ijtimoiy himoya qilish, davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, mudofaa va xavfsizlikni mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda qonunchilikni yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim qonun va masalalar kiritilgan.

Shu bilan birga, senatorlar “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan kommunal xo'jaligi xodimi” faxriy unvonini ta'is etish to'g'risidagi qonunni muhokama qiladi va

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruza eshitiladi.

Shuningdek, Samarqand viloyatining Samarqand tumanini tugatish, Oqdaryo, Pastdarg'om, Toyloq tumanlari va Samarqand shahri chegaralarini o'zgartirish to'g'risidagi masala ham yalpi majlis kun tartibi doirasida muhokama etiladi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n sakkizinchi yalpi majlisi to‘g‘risida A X B O R O T

2026-yilning 7-avgust kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n sakkizinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlarning deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning “YouTube” tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib berildi.

O'n sakkizinchi yalpi majlisning birinchi ish kunini senatorlar “Bozor nazorati to'g'risida”gi qonunni muhokama qilishdan boshladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda



iste'molchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ichki bozorda muomalaga chiqarilayotgan mahsulotlar xavfsizligini ta'minlash hamda tadbirkorlik subyektlari uchun adolati va shaffof raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmogda.

Shu bilan birga, amalda bozorda inson

hayoti, sog'ligi, mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan nooziq-ovqat mahsulotlarini aniqlash, ularni muomaladan chiqarish va vakolati davlat organlarining o'zaro hamkorligini ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni yagona huquqiy asosda tartibga soluvchi alohida qonun mavjud emasligi qayd etildi.

➡2



XOTIN-QIZLAR MANFAATLARINI TAʼMINLASHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR

Oʻzbekiston kasaba uyushmalari saroyida Toshkent shahrida oila va xotin-qizlar yoʻnalishida amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalarga bagʻishlangan ochiq muloqot boʻlib oʻtdi.

Muloqot

Unda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva, Bosh vazir oʻrinbosari – Oila va xotin-qizlar qoʻmitasi raisi Dilnoza Kattaxonova, Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi, Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha respublika komissiyasi raisi Qudratilla Rafiqov va komissiyaga aʼzo boʻlgan vazirlik hamda idoralar mutasaddilari, poxtaxtdagi xotin-qizlar faollari, mahalla tizimi vakillari, olimlari ayollar ishtirok etdi.

Tadbirida Toshkent shahrida oilalarni mustahkamlash, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini taʼminlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, bandligiga erishish, kasb-hunar va tadbirkorlikka jalb etish, shuningdek, ogʻir hayotiy vaziyatga tushgan ayollarga manzilli koʻmak koʻrsatish borasida olib borilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Muloqotda mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini taʼminlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, munosib turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar izchil davom ettirilayotgani alohida taʼkidlandi.



Aytilganidek, joriy yilning 10-iyul kuni boʻlib oʻtgan yigʻilishda davlatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlar siyosatida mutlaqo yangicha yondashuvni nazarda tutuvchi beshta ustuvor yoʻnalish belgilab berildi. Ular iqtisodiy faol boʻlmagan har bir xotin-qiz bilan manzilli ishlash, xorijda mehnat qilayotgan ayollar va ularning oilalarini tizimli qoʻllab-quvvatlash, ogʻir hayotiy vaziyatga tushgan xotin-qizlarni taʼlim, kasb-hunar, psixologik va huquqiy yordam orqali jamiyatga qayta integratsiya qilish, tazyiq va zoʻravonlik xavfini barvaqt aniqlash, oilalarni mustahkamlash va ajrimlarni kamaytirish kabi vazifalarni qamrab oladi.

Davlatimiz rahbari belgilab bergan vazifalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida respublika boʻyicha tanlab olingan 28 ta tuman va shahardagi 1 137 ta mahallada qariyb 2 mln. 351 ming nafar xotin-qiz bilan xonadonbay muloqot oʻtkazildi. Oʻrganishlar natijasida hududlar va mahallalar kesimida ilk

bor “xotin-qizlar balansi” shakllantirilib, ayollarning ijtimoiy holati, ehtiyojlari va mavjud muammolaridan kelib chiqib manzilli ishlash tizimi yoʻlga qoʻyildi. Toshkent shahrida mazkur tajriba Yakkasaray va Mirobod tumanlarida amalga oshirildi.

Muloqot davomida xotin-qizlar bilan ishlashning bugungi holati atroficha tahlil qilinib, sohada uchrayotgan muammolar, ularning sabablari va yechimlari yuzasidan ochiq fikr almashildi. Shuningdek, davlat organlari, mahalla tizimi hamda boshqa hamkor tashkilotlar oʻrtasidagi oʻzaro hamjihatlikni yanada mustahkamlash, har bir murojaatga manzilli yondashuvni taʼminlash, ayollarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish boʻyicha muhim vazifalar belgilab olindi.

Eʼtiborlisi, ochiq formatdagi ushbu uchrashuvda poytaxtimizda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar, mahalla faollari va keng jamoatchilik vakillari oʻz taklif hamda amaliy tashabbuslarini ilgari surishdi.

Soʻz – tadbir ishtirokchilariga

Bajarayotgan ishlarimiz koʻp, lekin...

Ziyoda TOHIROVA, Shayxontohur tumani hokimi oʻrinbosari – oila va xotin-qizlar boʻlimi boshligʻi:



– Yangi Oʻzbekistonda inson qadrini ulugʻlash, uning huquq va manfaatlarini taʼminlash davlat siyosatidagi ustuvor yoʻnalishlardan biriga aylandi. Bu jarayonda xotin-qizlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning taʼlim olishi, munosib mehnat qilishi, tadbirkorlik bilan shugʻullanishi, siyosiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ayniqsa, xotin-qizlarning oliy taʼlim olishi, kasb-hunar egallashi, ilmiy faoliyat bilan shugʻullanishi, tadbirkorlik tashabbuslarini roʻyobga chiqarishi va ish bilan bandligini taʼminlash boʻyicha yangi imkoniyatlar taqdim etilayotir. Turli imtiyozlar, grantlar, imtiyozli kreditlar va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari ayollarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga, jamiyatdagi oʻrni va nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qilayapti.

Albatta, bajarayotgan ishlarimiz koʻp, lekin bugun ayollar bilan yanada koʻproq ishlashimiz kerak. Bu, oʻz navbatida, fuqarolik jamiyati institutlari, mahallalar, tegishli komissiyalar, idoralar, jamoat tashkilotlari vakillari bilan hamkorlikni bundan kuchaytirishimizni taqozo qiladi. Ayniqsa, bugunning eng dolzarb muammolaridan biri – oilaviy ajrimlarning oldini olish boʻyicha yangicha tizim asosida ishlash, shu orqali oʻzaro aloqalarni faollashtirsa, ishonamanki, muammolar chekinib, yutuqlarimiz yanada oshadi.

Bugungi uchrashuv xotin-qizlar faollarining ana shu yangicha tizimga poydevor qoʻyish bilan birga, oʻzaro muloqot, fikr va tajriba almashish imkonini berdi.

Takliflarim bilan oʻrtoqlashdim

Manzura VALIYEVA, Shayxontohur tumanidagi “Yangiobod” mahalla fuqarolar yigʻini raisi:



– Poytaxt ayollari, ularning ishini yanada yaxshilash, xotin-qizlarga har tomonlama koʻmaklashish, muammolarini hal etish, umuman, bu yoʻnalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga bagʻishlangan ushbu uchrashuv barchamizda chuqur taassurot qoldirdi, desam, adashmayman.

Muloqot davomida xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish borasidagi ishlar eʼtibor etilishi bilan birga, ayrim muammolar, qilinishi lozim boʻlgan yumushlar ham oʻrtaga tashlandi.

Shuni aytishni istardimki, bugun ayollarimiz davlatimiz rahbari tashabbusi bilan juda koʻplab imkoniyatlarga ega boʻlishmoqda va bu yoʻnalishdagi qoʻllab-quvvatlov tizimli davom ettirilayapti.

Uchrashuvda faoliyatimiz samaradorligini taʼminlash hamda yanada koʻproq natijalarga erishish uchun ayrim takliflarim bilan oʻrtoqlashdim. Jumladan, hozirgi kunda barcha mahallada ham xotin-qizlar faoli sharti yoʻq. Shu bois xotin-qizlar bilan manzilli va samarali ishlashni taʼminlash, murojaatlarga tezkor munosabat bildirish hamda profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida mahalla xotin-qizlar faoli lavozimi har bir mahallada alohida shtat birligi sifatida joriy etilisa maqsadga muvofiq boʻlardi. Oʻylaymanki, bu kelgusida oʻz samaralarini beradi.

Hech kim mahalladan noumid ketmasligi kerak

Naima JABBOROVA, Mirzo Ulugʻbek tumanidagi “Katta Qorasuv” mahalla fuqarolar yigʻini raisi:



– Yurtimizda xotin-qizlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash borasida erishilayotgan yutuqlar haqida koʻp gapirish mumkin. Lekin ochiq muloqotdan foydalaning holda oʻz takliflarimni ham bayon qildim.

Sir emas, hozirgi kunda ayollarni, aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan mutlaqo yangicha tizim joriy etilgan. Hududlarda “ayollar daftar”, “yoshlar daftar”, “ijtimoiy reestr” kabi daftarlar yuritiladi.

Rahim SHERQULOV (“Xalq soʻzi”).

Yunus BOʻRIYEV olgan suratlar.

YOʻL HARAKATI QOIDALARIDA NIMALAR OʻZGARADI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan “Yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash yanada takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun qabul qilinib, Senatga yuborildi.

Unda eng muhim yangiliklar nimalardan iborat? Nega amaldagi tartiblarga oʻzgartirish va qoʻshimcha kiritish zarurati paydo boʻldi? Palatadagi muhokamalarda deputatlar qanday takliflarni berishdi? Shu va boshqa savollarga masʼul qoʻmita – Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qoʻmitasi aʼzolari javob berdi.

Xalqchil qonun

Maqsad – xavfsizlikni taʼminlashdan iborat

Dildora KAMOLOVA, qoʻmita raisi oʻrinbosari:

– Qonunchilik hayotda paydo boʻlayotgan yangi muammolardan ortda qolmasligi kerak. Biz loyihani shu yondashuv bilan koʻrib chiqdik. Chunki tahlillar ayrim qoʻpol va xavfli qoidabuzarliklar boʻyicha amaldagi taʼsir choralarini yetarli profilaktik natija bermayotganini koʻrsatmoqda.

Masalan, voyaga yetmaganlarning avtomobil boshqarishi bilan bogʻliq holatlarni olaylik. Statistik maʼlumotlarga koʻra, 2025-yilda 14 yosh va undan kichik shaxslar tomonidan 168 ta yoʻl-transport hodisasi sodir etilgan boʻlib, natijada 45 nafar inson vafot etgan, 138 kishi tan jarohati olgan. Ayni raqamlarni shunchaki statistika deb qabul qilib boʻlmaydi. Bu juda katta yoʻqotish, aslida.

Toʻgʻri, amalda transport vositasini boshqarish huquqiga ega boʻlmagan shaxsga avtoulovni berganlik uchun BHMning 5 baravari miqdorida jarima belgilangan. Biroq amaldagi ushbu norma voyaga yetgan shaxsga ham, voyaga yetmagan shaxsga ham avtomobilni boshqarishga berganlik uchun bir xil javobgarlik belgilanishiga olib kelyapti. Vaholanki, bu ikki holatdan eng xavfli voyaga yetmagan shaxsga boshqarish huquqini berish hisoblanadi.

Tasavvur qiling, haydovchilik guvoohnomasi yoʻq oʻsmirga avtomobil kaliti berilyapti. Unda hali yoʻldagi xavfni toʻliq baholash koʻnikmasi ham, bunday masʼuliyat uchun zarur tajriba ham yoʻq. Shu sababli, qonunda voyaga yetmagan shaxsga transport boshqarishni topshirish uchun javobgarlik sezilarli darajada kuchaytirilmoqda. Agar bunday harakat odamga oʻrtacha ogʻir yoki ogʻir shikast yetkazilishiga, odam oʻlimiga yoxud boshqa jiddiy oqibatlariga sabab boʻlsa, transport vositasini boshqarishni topshirgan shaxs toʻgʻridan-toʻgʻri jinoyi javobgarlikka tortiladi.

Bundan tashqari, mast holda transport boshqarish bilan bogʻliq vaziyat ham jiddiy. 2024-yilda 18787 ta, 2025-yilda esa 23996 ta shunday holat qayd etilgan. Yaʼni mast boʻla turib transport boshqarish bir yilda 22 foizga oshgan.

Shu bois transportni mastlik holatida boshqarganlik yoki mastlikni aniqlash maqsadida tekshiruvdan oʻtishdan boʻyin tovlaganlik uchun qoʻshimcha ravishda transportni vaqtincha olib



Loyiha muhokamasidan soʻng...


Oybek YOʻLDOSHEV, qoʻmita aʼzosi:

– Muhokamalarning eng muhim nuqtalaridan biri yangi taʼsir chorasi belgilanishi bilan bogʻliq boʻldi. Gap shundaki, loyihada ayrim qoʻpol qoidabuzarliklar uchun avtomototransport vositasini olti oydan bir yilgacha vaqtincha olib qoʻyish bilan bogʻliq yangi taʼsir chorasini qoʻllash nazarda tutilgan. Shuning uchun palatadagi

muhokamalarda aksariyat deputatlarning savollari quyidagi mazmunda boʻldi: agar fuqaroning avtomobili olti oy yoki bir yil davlat ixtiyorida saqlansa, uning butligiga kim kafolat beradi? Jarima maydonchalarida buning uchun yetarli sharoit yaratilganmi? Uning xarajati kimning hisobidan qoplanadi?

Haqiqatan ham, transport vositalarini saqlash uchun talablarga javob beradigan maxsus joylar yetarli boʻlishi, ularning xavfsizligi taʼminlanishi, avtomobil yogʻingarchilik yoki boshqa tashqi taʼsirlardan himoya qilinishi – bularning barchasi oldindan puxta oʻylanishi kerak. Fuqaro mol-mulkini belgilangan muddatdan keyin but holda qaytarib olishiga ishonch hosil qilishi shart.

Biz, deputatlar bu masalani hal etish uchun qonunda Vazirlar Mahkamasiga vaqtincha olib qoʻyilgan avtomototransport vositalarini saqlash sharoitlari va talablarini qamrab olgan hujjat ishlab chiqishi uchun muddat belgiladik. Qonun qabul qilinib, kuchga kirs, Vazirlar Mahkamasiga 3 oy muddat ichida mazkur normaning jiro etilishi tartibini belgilashi shartligi qonunda aniqliq qilib qoʻyildi. Hukumat tomonidan tegishli qaror imzolab, vaqtincha olib qoʻyilgan transport vositalarining saqlanishi uchun yetarlicha sharoit yaratilganidan keyingina ushbu norma qonuniy kuchga kirishini alohida qayd etdik. Shu paytga qadar qonun ijodkorligida muayyan norma qonuniy kuchga kirishi uchun alohida muddat belgilanmagan. Bunday yondashuvdan koʻzlangan maqsad – fuqarolarning mulkiy huquqi toʻgʻridan-toʻgʻri ishlaidigan qonun bilan taʼminlanishiga erishishdan iborat.



KUN TARTIBIDA – BYUDJET MABLAGʻLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALASI

1 Birinchi sinf oʻquvchilari uchun esa 802 mingga oʻquv qurollari toʻplamini yetkazib berish ishlari davom etmoqda.

Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2026-yil uchun rejalashtirilgan 6,3 mlrd. soʻm byudjet mablagʻining yarim yillikda 2,5 mlrd. soʻmi oʻzlashtirilgan. Shundan, 1,9 mlrd. soʻm oliy taʼlimni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan. Talabalar turarjoyi bilan taʼminlanganlik darajasi 58 foizga yetkazildi, mazkur yotoqxonalar sigʻimi 159 mingdan ortiq oʻringa oshirildi.

Ilm-fan va innovatsiyalar sohasida 441,8 mlrd. soʻm mablagʻ oʻzlashtirildi. Ilmiy

darajaga ega professor-oʻqituvchilar soni 20,7 ming nafarga yetdi. Davlat ilmiy dasturlari doirasida fundamental tadqiqotlar boʻyicha xalqaro hamkorlik toʻliq taʼminlandi.

Madaniyat vazirligi tizimi uchun birinchi yarim yillikda respublika byudjetidan 854,9 mlrd. soʻm ajratilib, mablagʻlarning 95 foizi oʻzlashtirilgan. Madaniyat markazlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, madaniyat obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlari ham izchil davom ettirilmoqda.

Sport vazirligi hisobotida olimpiada va paralimpiya sportchilarini tayyorlash, ommaviy sportni rivojlantirish

hamda sport infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan dasturlar ijrosi nafaga axborot berildi. Oʻtgan davrda olimpiya sport turlari boʻyicha 9 ta, paralimpiya sport turlari boʻyicha 222 ta medal qoʻlga kiritilgan. Osiyo va jahon chempionatlari hamda xalqaro turnirlarda mamlakatimiz sportchilari jami 664 ta medalga sazovor boʻlgan.

Shuningdek, “Besh tashabbus olimpiadas” doirasida 9 008 ta mahallaga sport jihozlari yetkazib berilgan. Ommaviy sport bilan muntazam shugʻullanayotgan yoshlar 3,6 mln. nafardan, futbolga qatnashayotganlar soni esa 30 ming nafardan oshgan.

Turizm qoʻmitasi hisobotida

byudjet mablagʻlarining sarflanishi, jamgʻarma daromadlari va xarajatlari ijrosi tahlil qilindi. Qayd etilishicha, birinchi yarim yillikda daromadlar prognozi 90,6 foizga, xarajatlari ijrosi esa 81,6 foizga taʼminlangan.

Muhokamalar davomida deputatlar tomonidan masʼul vazirlik va idoralarga byudjet mablagʻlaridan yanada samarali foydalanish, bajarilmagan yoki qisman bajarilgan indikatorlar boʻyicha chuqur tahlil oʻtkazish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Yigʻilishda kun tartibidagi masalaga doir tegishli qaror qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

Qonun kuchi nimalarda namoyon boʻladi?

Ulugʻbek QOBULOV, qoʻmita aʼzosi:

– Menimcha, bu savolga eng sodda javob shu: yoʻlda boshqalarning hayotini xavf ostiga qoʻyadigan harakatlarga munosabat jiddiy oʻzgaradi va barvaqt oʻlimlarning oldi olinadi.

Bir misol, koʻchada avtomobil poygasini olaylik. Baʼzan buni yoshlarning shunchaki qiziqishi yoki koʻngilochar mashgʻuloti sifatida qabul qilamiz. Aslida esa bir necha avtomobil katta tezlikda aholi yashaydigan koʻchada harakatlansa, oʻsha payt yoʻldan oʻtayotgan piyoda ham, boshqa avtomobil haydovchisi ham mutlaqo aybsiz holda xavf ostida qoladi. Bu, ming afsuski, ayrim hollarda oʻlim bilan tugaydi. Tahlillar shuni koʻrsatayptiki, ogʻir oqibatli hodisalarning muayyan qismi tashkillashtirilgan yoki tashkillashtirilmagan noqonuniy koʻcha poygalari bilan bogʻliq. Bunday poygalar nafaqat harakat ishtirokchilari hayotiga xavf tugʻdiradi, balki tungi vaqtda aholi oyoqsoyishligini ham buzadi.

Qonun ana shunday holatlarga nisbatan taʼsirchan choralarini nazarda tutmoqda. Yoʻl bezoriligi, noqonuniy poygalar, oʻta xavfli qoidabuzarliklar, mast holda transport boshqarish yoki tekshiruvdan boʻyin tovlash kabi qilmishlarga nisbatan javobgarlik kuchaytirilyapti.

Yana bir oddiy, ammo muhim misol – katta yuk avtomobillarining tungi vaqtda yoʻl chetida xavfli holatda tashlab ketilishi. Qorongʻida haydovchi uni kech payqashi, oqibati esa ogʻir boʻlishi hech gap emas. Shu bois qonunda bunday holatlarga ham huquqiy baho berish nazarda tutilmoqda.

Ayni paytda texnik nosozlik tufayli majburan toʻxtagan yoki maxsus ajratilgan joyda turgan transport vositalari bundan istisno qilinadi. Yana bir yangilik – majburiy texnik koʻrikdan oʻz vaqtda oʻtmagan transport vositalarini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish vositalari orqali aniqlash imkoniyati yaratilmoqda. Bu ham oddiy talab emas. Texnik nosoz avtomobil faqat uning egasi uchun emas, yoʻldagi boshqa odamlar uchun ham xavf manbai boʻlishi mumkin.

Bu qonunning mohiyatini bir fikr bilan ifodalagan boʻlardim: yoʻl – hech kimning shaxsiy hududi emas. U yerda nojoʻya bir harakatingiz boshqa insonning hayoti va xavfsizligiga qad qiladi. Agar ota-ona voyaga yetmagan farzandiga avtomobil kalitini berishdan oldin oqibatini oʻylasa, kimdir koʻchani poyga maydoniga aylantirishdan tiylasa, mast holda rulga oʻtirmoqchi boʻlgan inson javobgarlik muqarrarlighi his etasa, texnik nosoz avtomobil oʻz vaqtda aniqlansa – qonunning profilaktik vazifasi ishlay boshlaydi.

Zotan, bu qonundan kutilayotgan eng asosiy natija koʻproq jarima yoki koʻproq jazo emas. Eng muhim natija – yoʻllarda kamroq fojia, kamroq jarohat va saqlab qolingan inson hayotidir.

“Xalq soʻzi”.





FAROVONLIK KAFOLATIGA AYLANAYOTGAN TARMOQ

Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi tantana qilinadigan qutlug' sanaga sanoqli kunlar qolmoqda. Bu qutlug' sanani munosib kutib olishga taraddud ko'rayotgan quruvchilar esa avgust oyining ikkinchi yakshanbasida Qurilish sohasi xodimlari kunini nishonlashadi va ayni chog'da soha vakillarining shijoati, zahmati har qancha e'tirofga loyiq.

Islohot mevalari

Darhaqiqat, millionlab kishilarning uy-joyli bo'lgani, butun boshli shaharlar, yirik ishlab chiqarish korxonalari, mahobati biri-biridan qolishmaydigan saroylar madaniyat maskanlari, ta'lim dargohlari, istirohat bog'larlari paydo bo'lgani quruvchilar shijoati bilan chambarchas bog'liq. Ayni jarayonda davlatimizning xalqchil siyosati yurtimizdagi har bir xonadonga kirib bordi, bugun keyingi o'n yil ichida yangi uy-joyga, barcha qulayliklarga ega bo'lgan xonadon egasiga aylangan kishilar borki, shu yurtda tug'ilgani, shu el farzandi ekanligiga shukrona aytmogda.

Prezidentimizning tashabbusi, shijoati tufayli bunyodkorlik tom ma'noda, mamlakat taraqqiyotining ko'zgusi, iqtisodiyotdagi faollikning eng muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda esa yurtimizda qurilish hajmining jadal o'sishi yangi texnologiyalarning kirib kelishiga, qurilish materiallarini mahalliylashtirish, sifat nazoratini kuchaytirish va shaharsozlikning yangi tamoyillarini joriy etishga turtki berdi.

– Har qanday natija, avvalo, raqamlarda aks etadi. Shu ma'noda aytsak, so'nggi to'qqiz yilda yurtimizda 210 mln. kvadrat metrdan ortiq bino va inshootlar barpo etildi. 647 ming xonadonli 15 mingdan ziyod ko'p qavatli uylar foydalanishga topshirildi. Natijada yuz minglab oilalarning turmush sharoiti yaxshilaniib, zamonaviy yashash muhitiga ega bo'lish imkoniyati yaratildi, – deydi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri Sherzod Hidayatov. – O'tgan yilning o'zida 135 mingta kvartiraga ega bo'lgan uy-joylar barpo etilganini alohida ta'kidlash lozim. Joriy yilda yana 140 mingta yangi

kvartira foydalanishga topshiriladi. 2040-yilgacha mamlakatimizda quriladigan uy-joylar sonini yiliga 280 mingtaga yetkazish, "Yangi O'zbekiston" massivlarini 61 tadan 120 taga ko'paytirish reja qilingan. Yana bir muhim raqam: qurilish ishlari hajmi 2016-yildagi 30 trln. so'mdan 314 trln. so'mga yetib, tarmoqning iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli darajada oshdi.

Bugun qurilish sohasi iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi, millionlab odamlarni ish bilan ta'minlaydigan strategik yo'nalishga aylandi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Qurilish va qurilish materiallari sanoati hamda unga yondosh tarmoqlarda 3,5 milliondan ziyod fuqarolar mehnat qilib kelayotgani ham so'zimizning yaqqol isboti.

Yana bir e'tiborli jihat – ma'muriy tartib-taomillarning soddalashtirilgani. Qurilishga ruxsat berish bosqichlari 3 karra, jarayon muddatlari esa 4 barobar qisqartirildi. Bu islohotlar tadbirkorlar va investorlar uchun ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytirib, yangi loyihalarni tezroq amalga oshirish imkonini bermogda.

So'nggi yillarda tarmoqda raqamli transformatsiya alohida bosqichga ko'tarildi. "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi asosida 24 ta elektron platforma ishga tushirildi. Qurilish va loyiha tashkilotlarining elektron reyting tizimi, davlat xaridlarining elektron tender platformasi, nazorat jarayonlarining to'liq raqamlashtirilishi ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashda muhim omil bo'ldi. Natijada bugungi kunda 72 mingdan ortiq elektron tenderlar orqali 83,9 trln. so'mlik loyihalar amalga oshirildi va Davlat byudjetidan 4,2 trln. so'm mablag' iqtisod qilindi.

Davlat nazorati ham mutlaqo yangi bosqichga chiqdi. Bugungi kungacha 66 mingdan ortiq qurilish obyektlari



elektron ro'yxatga olinib, 800 mingdan ziyod monitoringlar o'tkazildi. Endilikda qurilish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish, kamchiliklarni tezkor aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati yaratildi. "Shaffof AI" ektozimi orqali loyiha hujjatlarini avtomatik tahlil qilish, ekspertiza jarayonlarini raqamlashtirish hamda inson omilini kamaytirishga qaratilgan yangi mexanizmlar bosqichma-bosqich ishga tushirilmoqda. Joriy yilda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi va Burhoniddin Marg'inoniy turizm markazi kabi noyob madaniy-ma'rifiy inshootlarda qurilish va obodonlashtirish ishlari yakuniga yetkazishda fidokor quruvchilarning hisssasi beqiyos bo'ldi.

Poytaxtimizdagi Yangi Toshkent, Toshkent viloyatidagi Nurafshon, Andijon viloyatidagi Bobur, Farg'onadagi "Ekoshahar", Samarqanddagi Shirin, Xorazmdagi Al Xorazmiy shaharlari kabi megaloyihalar mutlaqo yangi muhandislik yechimlari, "yashil" qurilish tamoyillari bilan mamlakatimiz bunyodkorlik tarixida yorqin sahifa ochmogda. Muhimi, tunu kun tinmayotgan bunyodkorlik ko'lami kechagina maktabni bitirib bugun ustozlari ko'magida mahoratli insonga aylangan yoshlarning kayfiyatida aks etayotir. Va yana bobolaru momolar duoga qo'l ochib, quruvchilarni alqaganida ham hikmat bor. Bu soha odamlari o'z

mehnatlari bilan mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. Buni davlat rahbari tabrigini o'qib ham yurakdan his etasiz, beixtiyor to'qinlanib ketasiz. Shuning o'ziyoq Yangi O'zbekistonda islohotlar ko'lami nechog'li zalvarli ekanligidan dalolat.

Prezidentimiz tomonidan joriy yilda quruvchilar oldiga ulkan vazifalar qo'yildi va bunda 2026-yil 16-fevraldagi tegishli farmon bilan tasdiqlangan davlat dasturi muhim o'rinni tutadi. Mazkur hujjatga ko'ra, yil oxiriga qadar mamlakatimizda qurilish hajmini 11 foizga oshirib, 30 mlrd. dollarga yetkazish vazifasi belgilangan. Shu maqsadda "Yangi Toshkent" loyihasida infratuzilma, turarjoy va ma'muriy binolar qurilishini jadallashtirish, hududlarda uy-joy qurilishi, renovatsiya dasturlarini kengaytirish, ijtimoiy hamda infratuzilma obyektlari qurilishini xalqaro moliya institutlari va xususiy investorlar mablag'lari hisobidan ko'paytirishga jiddiy kirishilyapti. Bunday yondashuv qurilishni alohida tarmoq sifatida emas, balki iqtisodiyotning o'zaro bog'liq tizim – harakatga keltiruvchi lokomotiv o'rnida ko'rishni taqozo etadi. Qolaversa, tarmoqda katta qadamlar tashlanishi sement, armatura, g'isht, gazobeton, oyna, eshik-rom, santexnika, elektr jihozlari kabi yuzlab turdagi mahsulotlarga talabni karrasiga oshiradi, mahalliylashtirishga kuch beradi. Qurilishga talab ortgan sari transport,

logistika, me'morchilik, loyihalash, moliya, sug'urta, savdo va xizmatlar sohalari rivoj topadi. Bu, o'z navbatida, yuz minglab yangi ish o'rinlari yaratiladi, mahallay qishloqlar obod bo'ladi, aholi turmushiga o'zgarishlar, qut-baraka kiradi, degani.

So'nggi yillarda yurtimizda qurilish materiallari sanoati texnologik jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi, shunga mos ravishda bugun yangi uy-joylar va sanoat binolari uchun zarur bo'lgan materiallarning 98 foizi mahalliy sharoitda ishlab chiqarilmoqda. Kelgusida asosiy e'tiborni nafaqat ichki bozorga, balki eksportga qaratish qurilish sanoati uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi va bu davr talabidir.

– Davlatimiz rahbari oldimizga nafaqat qurilish mahsulotlari hajmini oshirish, balki eksport geografiasini kengaytirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirish vazifasini qo'ydi, – deydi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri Sherzod Hidayatov. – Hech shubha yo'qki, bu vazifa, albatta, uddalanadi. Chunki qurilish ashyolari o'zimizda yetarli, texnologiya va mutaxassislar malakasi ham xorijnikidan aslo kam emas. Ayni chog'da nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki uning tannarxini kamaytirishga, energiya sarfi, ekologik ta'siri, sifati va turlarini ko'paytirishga e'tibor qaratilmoqda. Chunki binoning mustahkamligi faqat loyiha yoki qurilish texnologiyasiga emas, balki unda ishlatilayotgan har bir materialning sifatiga bog'liq. Sohada raqamlashtirish ustuvorligi ta'minlanib, sun'iy intellekt asosida ishlaghga o'tilayotgani shaffoflikka yo'l ochdi, sifat va samaradorlikni yanada oshirishga turtki bermogda. Demak, bundan buyon qurilish sohasiga innovatsion texnologiyalar ko'proq joriy etiladi, bunda har bir mutaxassis yanada faol bo'ladi.

Abdunabi ALIQULOV
("Xalq so'zi").



BU ONA ZAMIN – JON QADAR AZIZ!

Har bir xalqning tayanch nuqtasi bor. Kim uchundir bu dengiz bo'lsa, kim uchundir – tog'lar. Biz uchun aynan yer hamisha asosiy tayanch bo'lgan va hozir ham shunday. Bu faqat xaritadaagi manzil, shunchaki hududlar emas. Bu – avloddan-avlodga o'tib kelayotgan muqaddas zamin.

Nuqtai nazar

O'ttiz besh yil davomida butun bir yangi avlod unib-o'sdi, bu avlod mustaqil davlatda yashashdan boshqa, o'zgacha hayotni hatto tasavvur ham qila olmaydi. Bayram yaqinlashar ekan, biz "milliy o'zlik" va "vatanparvarlik" degan so'zlarni ko'p takrorlaymiz. Lekin shuni tan olaylik: bu tushunchalar faqat minbarlarda yangramaydi. Ular ona zaminning o'zida, ota-onalar birgalashib daraxt ko'chatini ekan, uning soyasida nafaqat farzandlari, balki nabiralari ham bahra olib yashashini yaxshi bilgan joyda vujudga keladi.

Bundan uch ming yil avval "Avesto"da yerni parvarishlash, dehqonchilik qilish turli chalkashlik, tartibsizliklarga qarshi kurashish harakatidir, deb hisoblangan. Bugun biz "barqaror rivojlanish" degan iborani ko'p ishlatamiz, ota-bobolarimiz esa buni ma'naviy burchimiz, deb hisoblashgan. "Kuchli davlat hujjatda emas, balki yetuk inson yuragida, qalbida", deydishgan. Buni ulug' bobolarimiz – Beruniy, Ibn Sino va Navoiylar ham uqitirishgan. Bizning avlod esa, sho'rolar davridagi kolxozlardan to bugungi fermer xo'jaliklarigacha bo'lgan uzun yo'lni bosib o'tdi. Endi bu xo'jaliklar butun bir sohaning poydevoriga aylandi.

So'nggi yillarda yuz bergan o'zgarishlarni raqamlarda ifodalasak, faxr-iftixor hissini tuyamiz. O'zbekiston qachondir sifati no'ini ham chetdan olgan bo'lsa, bugun hitlati va yuqori qiymatga ega turli mahsulotlarini 183 ta davlatga eksport qilmogda. Bunga Istiqlo'lni imkon yaratdi – avval buyruq asosida ishlagan dehqon endi o'zi tashabbuskor.

Mamlakatimizda ayni davrda 800 dan ortiq agroklasterlar faoliyat yuritmoqda. Ularda urug' qadashdan tortib, mahsulotni to aholi dasturxoniga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayon "bitta qo'ldan" o'tadi. Davlatimiz yana ham katta maqsadni qo'yomqda: yaqin kelajakda fermerlarning daromadini ikki baravarga oshirish hamda yerning bir qismini oilaviy dehqon xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish.

Ilgari, to'g'rirog'i, o'n yil avval tomchilatib sug'orish texnologiyasi ko'pchilik uchun katta yangilik edi. Bugun suv tejovchi texnologiyalar sug'oriladigan ekin maydonlarining 60 foizini qamrab olgan. 2028-yilga borib, ushbu ko'rsatkich 80 foizgacha yetadi. Lekin gap faqat kanallarni betonlash va millionlab kubometr suvni tejashda emas. Dehqonning ongi o'zgarmogda: u ilgari daryo suviga oddiy iste'molchi nazari bilan qarardi, endi esa, Sharq allomalari targ'ib etganidek, obihayotga donishmandlik va tejamkorlik bilan yondashmogda.

Irrigatsiya hech qachon yakka-yolg'iz odamning ishi bo'lmagan – u bir-biriga ishonch va bir-birini qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Shunday qilib, asrlar osha mahalla ruhi shakllangan. Mahalla – faqat pasportdagi manzil emas. Bu yerda farzandlar hali maktabga bormasdan avval ham non qadrini his qilishni o'rganadi. Shu bois "Kambag'allikdan farovonlik sari" degan tamoyil mahallaga tayanadi: davlat infratuzilmaga, ya'ni yo'llar, yorug'lik, gaz va

internetga sarmoya kiritadi va bu odamlarda o'z ona yeriga daxldorlik hissini kuchaytiradi.

Dunyo jadallik bilan o'zgarogda: sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, yangicha kasblar paydo bo'ldi. Lekin hech qaysi texnologiya o'zligingni anglashga yordam bera olmaydi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi fuqarolik mas'uliyati bo'yicha yangi maktabga aylanmogda.

Bundan o'ttiz besh yil avval biz o'z taqdirimizni o'zimiz belgilash huquqini qo'lga kiritdik. Imkoniyatlar kengaydi, biz dunyoga, dunyo bizga yuz tutdi. Birgina ToshDAuni

dalasiyu innovatsion tamoyillarga ko'ra so'nggi texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan laboratoriyalarda yurganda ko'ngildan ajib hislar o'tadi. Kindik qoni to'kilgan bu tuproq – jonqadar aziz Vatan nechog'li ulug'! Uning tezi baland yoshlari dunyoning ne-ne puchmoqlarida o'z iqtidorini namoyon etmogda, olamshumul kashfiyotlar, mo'jizalar yaratmogda. Bundan g'ururlanmay bo'larkanmi?!

Atrofimizdagi dunyo har qachongidan ham tez o'zgarogda: sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot o'z qoidalarini ishga solyapti. Lekin hech qanday texnologiya o'z ildizlariningni tushunishdek holatning o'rini bosa olmaydi. Bugun qishloq xo'jaligi faqat gektarlar va tonnalard degani emas. Yangi avlod o'tmishdagi kamyoblik va uzundan-uzun navbatlar nima ekanini bilmaydi. Lekin o'z davlat bayrog'ining qadrini, o'z yurtining dunyo xaritasidagi nomini yaxshi biladi. Bugun yoshlar o'z bobosi qo'l mehnati orqali bunyod etgan dalada risq-nasiba yaratmogda. Lekin endi u mehnatni zamonaviy bilimlar yordamida bajaradi, o'z mehnatining mahsulidan o'zi foydalanadi va bunga qonunon haqlidir.

Bugun biz nafaqat kelajakni qurmogdamiz, balki ota-bobolarimiz merosini o'rganib, uni taraqqiyot uchun asosiy tayanchga aylantirmogdamiz. Unutmazlik joizki, hosildor zamin

nafaqat hosilini o'stiradi, balki u millat xarakterini toblaydi.

Shahnoza KIMSANBOYEVA,
Toshkent davlat agrar universitetining
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti.

Shu yil 9 – 16-avgust kunlari Toshkent shahri ilk bor 38-Xalqaro informatika olimpiadasiga mezbonlik qiladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;

e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2030-6788

4772030 678004

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mulligga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir R. Bobojonov.

Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 22.50 Topshirildi – 01.10 1 2 3 4 5 6



"TURKIC ID" – YANGI SHENGEN BO'LADI

"Eurasiatoday" nashrida yozishlaricha, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar "Turkic ID" tashabbusi ustida ish olib bormogda.

Loyiha amalga oshirilsa, tashkilotga a'zo mamlakatlar fuqarolari xorijga chiqish pasportisiz, shaxsni tasdiqlovchi hujjat orqali davlatlararo safar qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa fuqarolar harakatini yengillashtirish, ma'muriy to'siqlarni qisqartirish va savdo, turizm hamda gumanitar aloqalarni faollashtirishga xizmat qilishi kutilmogda.

So'nggi yillarda TDT iqtisodiyot, transport, raqamlashtirish, ta'lim, madaniyat, logistika va mudofaa sanoati sohalarida hamkorlikni bosqichma-bosqich kengaytirib kelmogda. Yagona identifikatsiya tizimi joriy etilishi bu jarayonni yanada tezlashtirishi mumkin.

ENG FAROVON DAVLATLAR REYTINGI E'LN QILINDI

Buyuk Britaniyaning "The Legatum Institute" tahlil markazi tomonidan tuzilgan navbatdagi "Farovonlik indeksi"ga ko'ra, Shveysariya dunyodagi eng farovon mamlakat deb topildi.

161 davlatni qamrab olgan mazkur reytingni tuzishda qariyb 300 ta statistik ko'rsatkichdan foydalanilgan. Davlat boshqaruvi va jamoat institutlari sifati, iqtisodiy muhit, tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar, shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash va inson salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari hisobga olingan.

Ikkinchi o'rin Norvegiyaga, uchinchi o'rin esa Irlandiyaga nasib qildi. Dastlabki o'ntalikka Yevropadan tashqari faqat Avstraliya (9-o'rin) kirgan. Reytingning quyi qismida esa, asosan, Afrika davlatlari joylashgan bo'lib, so'nggi o'ntalikda Afg'oniston ham bor.

YER SAYYORASI MISLI KO'RILMAGAN ISSIQLIK DAVRIGA KIRIB BORMOGDA

Kuchayib borayotgan "El-Ninyo" hodisasi yaqin oylarda yangi harorat rekordlariga olib kelishi mumkin.

Bu haqda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ogohlantirib, hukumatlarni aholini himoya qilish choralarini tezlashtirishga va qazilma yoqilg'idan foydalanishni yanada kamaytirishga chaqirdi.

U dunyo aholisi ekstremal ob-havo hodisalari sodir bo'lgan yozni boshdan kechirganini ta'kidladi. Misol sifatida rekord darajadagi issiqlik to'qlinlarini, Ispaniya, Fransiya va boshqa mamlakatlardagi o'rmon yong'inlarini, shuningdek, Tinch okeani yuzasining rekord darajadagi haroratini keltirdi.

Jahon meteorologiya tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, "El-Ninyo" kuchayishda davom etadi va 2026-yilning avgust – oktabr oylari oraliqida yuqori intensivlikka chiqadi.

A. Guterrish "El-Ninyo" nafaqat haroratga, balki yog'ingarchilik mavsumiga ham ta'sir qilishini qayd etgan.

AFG'ONISTONLIKLAR YURTIGA QAYTYAPTI

Qo'shni davlatlardan afg'onlarni deportatsiya qilish va qaytarish jarayoni davom etmogda.

Xalqaro migratsiya tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 19-iyuldan 1-avgustgacha bo'lgan davrda 100 368 kishi Afg'onistonga qaytgan. Ammo xuddi shu davrda 42 904 nafar afg'onistonlik mamlakatni tark etgan. Tashkilot Pokistondan 55 631 kishi, Erondan esa 44 737 nafar odam qaytgani ma'lum qildi.

Raqamlar shuni ko'rsatadiki, hisobot davrida Afg'onistondan chiqib ketganlarga qaraganda mamlakatga kirganlar soni ko'p. Bu Eron va Pokiston noqonuniy afg'onlarni chiqarib yuborish choralarini kuchaytirgani sababli qaytayotganlar oqimi to'xtamayotganini anglatadi.

AYOLLAR KAM MAOSH OLMOQDA

BMT e'lon qilgan yangi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining yarmidan ko'pini ayollar tashkil etsa-da, ular hamon erkaklarga nisbatan o'rtacha 23 foiz kam maosh olmogda. Bundan tashqari, dunyodagi rahbarlik lavozimlarining atigi 31 foizdan sal ko'prog'ini ayollar egallaydi.

Xalqaro mehnat tashkiloti hisob-kitoblarida 2025-yilda ayollarning atigi 48 foizi rasmiy mehnat bozorida ishtirok etgani aytiladi. Erklarlarda esa bu ko'rsatkich 73 foizni tashkil qilgan. Shu bilan birga, haq to'lanmaydigan parvarish va uy yumushlarining to'rtidan uch qismidan ortigi ham ayollar zimmasiga to'g'ri kelmogda.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha idorasi vakili Peggi Xiksning aytishicha, ayollar uchun yetakchilik sari yo'l hamma uchun bir xil emas.

Internet xabarlari asosida Sharofiddin TO'LAGANOV ("Xalq so'zi") tayyorladi.